

AMONOV Mexrojiddin Uzbekovich,

*Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
mirzomerojiddin@gmail.com*

XV-XIX ASRLAR ZARAFSHON VOHASI TARIXIDA NAQSHBANDIYLIK TA'LIMOTI NAMOYANDALARINING TUTGAN O'RNINI

РОЛЬ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ НАКШБАНДИЙСКОГО ТАРИКАТА В ИСТОРИИ ЗАРАФШАНСКОЙ ДОЛИНЫ В XV-XIX ВЕКАХ

THE PLACE OF REPRESENTATIVES OF THE NAQSHBANDI TEACHINGS IN THE HISTORY OF THE ZARAFSHAN VALLEY IN THE 15TH-19TH CENTURIES

Annotasiya: Maqolada Bahouddin Naqshbandning vafotidan so'ng tariqatni davom ettirgan Alouddin Attor, Ya'qubi Charxiy, Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy, Maxdumi A'zam Dahbediy, Musoxon xoja Dahbediy, Muhammad Husayn Buxoriy kabi tariqat murshidlari hayoti va faoliyatiga doir nodir yozma manbalar asosida yangi ma'lumotlar kiritilgan. Shu asnoda nashqbandiylik tariqat tarixida nomi hali xanuz yozma manbalarda qolayotgan Alouddin Muhammad Buxoriy, Domla Mir Shoh Samarqandiy, Abdurahmon bek, Aflotun Buxoriy, Domla Hakimbek Buxoriy, Muhammad Yusuf xoja va Muhammad Yunus xoja Vobkandiy, Ibrohim xoja Buxoriy, Eshon Shokir xoja Sug'onchiy, Abdurahim xoja Ofarinkentiy kabi tariqat namoyandalari hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Naqshband, Zarafshon, silsila, qo'lyozma, irshodnoma.

Аннотация. Статья представляет новые данные, основанные на редких рукописях, о жизни и деятельности таких известных представителей нақшбандийского тариката, как Алауддин Аттар, Якуби Чархи, Ходжа Ахрар Вали и другие. Особое внимание уделяется периоду после смерти Бахауддина Нақшбанда, когда тарикат продолжали развивать такие выдающиеся личности, как Мусахан Ходжа Дахбеди, Мухаммад Хусейн Бухари и многие другие. Также исследованы биографии и деятельность менее известных, но не менее значимых шейхов нақшбандийского ордена: Алауддин Мухаммад Бухари, Домла Мир Шах Самарканди, Абдурахман бек, Афлотун Бухари, Домла Хакимбек Бухари, Мухаммад Юсуф Ходжа и Мухаммад Юнус Ходжа Вобканди, Ибрагим Ходжа Бухари, Эшон Шакир Ходжа Сугончи, Абдурахим Ходжа Офаринкентий.

Ключевые слова: Нақшбанд, Зарафшан, силсила, рукопись, иршаднаме.

Abstract: The article presents new information based on rare written sources about the life and work of the murshids of the tariqa, such as Alauddin Attar, Yakubi Charkhi, Khoja Ubaidullah Akhror Wali, Makhdumi Azam Dahbedi, Musakhan Khoja Dahbedi, Muhammad Hussein Bukhari, who continued the Tariqa after the death of Bahauddin Naqshband. In this context, information about the life and work of prominent figures in the history of the Nashkbandiya order, whose names are still found in written sources, is studied: Alauddin Muhammad Bukhari, Domla Mir Shah Samarkandi, Abdurakhman bek, Aflotun Bukhari, Domla Hakimbek Bukhari, Muhammad Yusuf Khoja and Muhammad Yunus Khoja Wobkandi, Ibrahim Khoja Bukhari, Eshon Shakir Khoja Sugonchi, Abdurakhim Khoja Ofarinkenti.

Keywords: Naqshband, Zarafshan, silsila, manuscript, irshadname.

KIRISH

Tasavvuf tariqati namoyandalari muayyan hududda tariqatla faoliyat ko'rsatibgina qolmay, balki ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotda ham muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, tariqat murshidlariga ixlos qo'ygan mamlakat hukmdorlari va amaldorlarining qo'llab-quvvatlashi natijasi o'laroq, tariqat murshidlarining mavqei yanada mustahkamlanib

borgan. Natijada o‘zlari istiqomat qilgan maskan obodonchiligi, yurt ravnaqi va rivoji uchun atrofidagi shogirdlaru ixlosmandlar ko‘magi bilan masjid, madrasalar, xonaqohu darveshxonalar tashkil etib, xalqning ijtimoiy-ma‘naviy hayoti yaxshilanishiga turtki bo‘lgan.

ASOSIY QISM

Naqshbandiylik ta‘limoti asoschisi Bahouddin Naqshband 1389-yilda vafot etganidan so‘ng, bu ulkan tariqat yo‘lini davom ettirish mas‘uliyati Mavlono Xoja Alouddin Attor zimmasiga tushadi.

Xoja Alouddin Attor asl ismi Muhammad ibn Muhammad Buxoriy bo‘lib, asli Xorazm viloyatidandir. Nosiriddin Buxoriy “Tuhfatuz zoyirin” asarida “Tuhfatul ansob” asarida quyidagi shajarani taqdim etadi: “Sayyid Muhammad ibn Sayid Amir Muhammad Buxoriy ibn Sayid Abdulloh Zarbaxsh ibn Sayid Ahmad (Sayyid Ato nomi bilan mashhur) ibn Sayid Abu Bakr (Sayid Yahyo) ibn Sayid Qosim ibn Sayid Husayn ibn Sayid Muso ibn Sayid Abdulloh ibn Sayid Muhammad Shahid ibn Sayid Abdulaziz ibn Sayyid Ja‘far ibn Sayid Abdulhaq ibn Sayyid Mujtabo ibn Sayid Muhammad kabir ibn Sayid Ibrohim Rizo ibn Imom Ali Muso Rizo” [6:55] orqali to‘rtinchi xalifa Hazrati Aliga yetadi. Demak, Alouddin Attor Sayyid Ota avlodlaridan biridir.

Abdurahmon Jomiy bergan ma‘lumotga ko‘ra, Alouddin Attor 802/1400-yil 20 rajab/16-mart chorshanba kuni xufton namozi vaqtida vafot etgani va qabri Deh Navchag‘aniyondadir [3:254^b varaq].

Alouddin Attor ustoz Bahouddin Naqshband vafotidan keyin tariqat masnadiga rahbarlik qilgan. Uni turli xil qarashlardan, ziddiyatli vaziyatlardan himoya qilgan. Tariqat tamoyillarini keng hudud bo‘ylab yoyilishi uchun katta hissa qo‘shgan. Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik haqida yoziladigan barcha kitoblarni o‘z nazoratidan o‘tkazgan. Sinchiklab o‘rganib chiqib, kitob qilish uchun turli mualliflarni jalb etgan.

Alouddin Attorning – Xoja Hasan Attor (vaf. 826/1423 [1:258^a varaq]), Xoja Abdulloh Imom Isfahoniy, Shayx Umar Moturidiy, Mavlono Ahmad Maska, Darvesh Ahmad Samarqandiy, Sayid Sharif Jurjoniy (740/1339-818/1415 [11:453^a varaq]), Mavlono Nizomiddin Xomush (vaf. 1450), Shayx Abdurazzoq, Mavlono Abusaid Balxiy, Mavlono Ya‘qub Charxiy kabi shogirdlari bo‘lgan.

Ya‘qub Charxiy ibn Usmon ibn Mahmud G‘aznaviy (taxminan 1363-yilda) G‘azna (hozirgi Afg‘oniston) yaqinidagi Charx qishlog‘ida tavallud topgan. U 1380-yilda Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan va Bahouddin Naqshbandga shogird tushgan. Keyinchalik, Xoja Alouddin Attorning xizmatiga kirgan.

Ya‘qub Charxiy 1447-yilda Chag‘oniyon viloyatining Halg‘atavda vafot etgan. Demak, 1400-1447-yillar davomida naqshbandiylik tariqatini boshqargan Ya‘qub Charxiy Movarounnahr va Xurosonda tasavvufning hayotiy yo‘nalishlaridan bo‘lmish naqshbandiya tariqati ta‘limotining keng yoyilishiga ulkan hissa qo‘shgan allomadir. Shu o‘rinda Alouddin Attorning shogirdi ekani, uning qo‘lida 10 yildan ortiq vaqt davomida tahsil olib, tariqatda ma‘naviy kamol topgani keyingi faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgani tushuniladi.

Ya‘qub Charxiy shogirdi Xoja Ubaydulloh Mahmud xoja o‘g‘li – Ahror Valiy nomi bilan mashhur bo‘lib, 806/1404-yil ramazon/mart oyida Shosh/Toshkentning Bog‘istonida dunyoga kelgan. Otasi Xoja Mahmud va bobolari ma‘rifatli kishilar bo‘lib, dehqonchilik va tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Ona tarafidan mashhur Shayx Xovandi Tahurga [10] borib ulanadi.

Xoja Ubaydulloh bolaligidan ilmga chanqoqligi sabab bo‘lgan ko‘rinadi 22 yoshida tog‘asi xoja Ibrohim Shoshiy uni tahsil olish uchun Samarqandga olib boradi. U yerda Mavlono Qutbiddin Sadrning madrasasida tahsil oladi. 1428-yilda Hirot shahrida Sayid Qosim Tabriziy (Qosim Anvor)ning dargohida tahsilni davom ettiradi. Shu tariqa, Chag‘oniyon mavzeida yashovchi naqshbandiya tariqati murshidlaridan

biri Mavlono Yaqubi Charxiy huzuriga borib tasavvuf sir-asrorlarini qunt bilan o'rganadi. Bu haqda Alisher Navoiy o'zining "Nasoyimul muhabbat" asarida "Xoja Ubaydulloh Xuroson mashoyixlari Hazrati Mir Sayyid Qosim Anvor, shayx Bahouddin Umar, shayx Zayniddin Xavofiy, Mavlono Muhammad Asad, Mavlono Sa'duddin Qoshg'ariylar, Movarounnahr mashoyixlaridan Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr, Mavlono Nizomiddin Xomush suhbatda bo'lib, Mavlono Ya'qubi Charxiydan" irshod va tarbiya topganligi bayon etilgan.

Ya'qub Charxiydan ta'lim olgan Xoja Ahror Hirotga va u yerda bir yil yashab qoladi. So'ngra 29 yoshida [2:24] Toshkentga qaytib, toat-ibodat va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'ladi. Xalq orasida ancha tanilgandan so'ng, 1450-yildan keyin [3:189] Samarqandga keladi.

Xoja Ahrori Valiy odamlarni rom qiluvchi nutq va rivoyatlarga, ilmi fiqh va ruboiyotlarga, Qur'on tafsiri va hadislarga shu darajada boy bo'lgan. Uning hayot yo'li va fazilatini bayon qiluvchi ko'pgina tarixiy asarlar orasida eng birinchilardan bo'lib yozilgan "Masmuot" (Eshitilgan) asari ul zotning kuyovi va izdoshi Mir Abdulavval Nishopuriy tomonidan XV asr oxirlarida bitilgan. Unda Xoja Ahrorning yurish-turishi, fazilati, so'fiylik dunyoqarashi haqida so'z borgan. Kitobda Muhammad sollallohu alayhi vasallam va chahoryorlardan tortib, Xoja Ahrori Valiy yashagan davrgacha yetib kelgan tasavvuf silsilasi sulukning eng ulug' namoyandalari faoliyati hamda Xojaning zamondoshlari bo'lgan temuriylar sulolasi bilan munosabati bayon qilingan.

Xoja Ubaydulloh 89 yil hayot kechirib, 895/1489-yil rabiul avval oyining yigirma to'qqizinchisi shanba kechasida, xufton namozidan keyin vafot etgan. Ertasi kuni peshin namozidan keyin dafn etilgan.

Mavlono Muhammad Qozining to'liq ismi Muhammad ibn Burhoniddin Miskiniy Samarqandiydir. Uning otasi Burhoniddin Qozi Imoduddinining yaqinlaridan bo'lgani uchun ham

o'g'liga "Qozi" nisbasini bergan. U dastlabki bilimlarni mukammal egallaganidan so'ng, tasavvuf ilmiga ham mayli kuchayib, Xurosonga o'tlanadi. U Xoja Ahror bilan 885/1480-yilda Samarqandda Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy bilan uchrashadi. O'n ikki yil xizmat qiladi. Mavlono Muhammad Qozi 921/1515-yilda vafot etgach, piri Xoja Ahror Valiyning yonida dafn etiladi.

Sayid Ahmad xoja (Mahdumi A'zam Dahbediy) Kosoniy Mavlono Mir Sayid Ali qoshida ilmi sarfu nahv (morfologiya va sintaksis) ni qunt bilan o'rganadi. Shundan so'ng, tasavvuf ilmiga rag'bat sezib, ustozi Mavlono Mir Sayid Alining maslahati bilan Xoja Ahror Valiyning Toshkentda yashayotgan eng yaqin shogird va xalifasi Mavlono Muhammad Qozi huzuriga borib, qo'l beradi hamda eng sevikli shogirdiga aylanadi.

Maxdumi A'zam Dahbediy va (uning shogirdi) Mavlono Xurd azizonning (vaf. 980/1572) shogirdi bo'lgan Muhammad Shoh (Mulla Poyanda) asli Axsikatda dunyoga kelgan. To'liq ismi Muhammad ibn Mir Darvesh Muhammad ibn Mir Obid Husayn Axsikatiy Abbosiydir [4:30]. Toshkent, Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgan.

Boqiy Muhammad Shikoriy Fanoiy Buxoriyning "Maqomotul orifin" [7: – B. 63] ("Ma'rifat egalarining maqomoti") asarida ustozi Mulla Poyandaning tarjimai holi yoritilgan.

Mulla Poyanda Axsikatiy Buxoriy Fayzobodda 1596-yilda xonaqoh qurdirgan. Buxoroning Samarqand ko'chasida masjid, ikki qavatli maktab, gumbazli tahoratxona ham qurdirgan [8]. Bu obidaning nomi Shoh Axsi jomesidir.

U ustozi Maxdumi A'zam Dahbediyning o'g'li Xoja Abduxoliq bilan bir (1010/1601) [9:144] yilda vafot etgan.

Buxoro shahri ichidagi Shoh Axsi masjidi atroflari shu nom bilan atalgan. Fayzobodagi xonaqoh ham Shoh Axsi xonaqohi deyilgan. Xonaqohning kunchiqar tomonida qabristonda Mulla Poyanda dafn etilgan.

“Mukoshiful asror”da Muhammad Husayn Buxoriyning Zarafshon vohasidan boʻlgan oltmishdan ortiq shogirdlari haqida maʼlumot keltirilgan. Domla Ashur Muhammad Miyonkoliy shom vaqti [5:139^a varaq] vafot etgani, Muhammad Sayidquli Miyonkoliy ona tomondan Xalifa Husayn avlodidan. Mulla Ollohyor Kattaqoʻrgʻoniy – kamolotga yetgan fazilatli kishilardan edi. Zavq va hol sohibi boʻlgan [5:138^a varaq]. Ayrim tadqiqotlarda Soʻfi Ollohyorni “Kattaqoʻrgʻoniy” deb berilgani kuzatish mumkin. Ammo biror manbada bu nisba bilan tilga olinmagan. Demak, Soʻfi Ollohyor yashagan davrda Miyonkol nomi bilan yuritilgan. Shu sabab izlanishlarda ham Miyonkoliy deb keltirilgan. Mulla Ollohyor Kattaqoʻrgʻoniy XIX asrda yashab oʻtgan.

Domla Mir Shoh Samarqandiy tasavvuf taʼlimini Samarqandda olib, keyin Toshkentga borib tariqatni yuritadi. Oʻsha yerda vafot etadi. Domla Rahimberdi Miyonkoliy – Buxoroda ustoz dargohida xizmatda boʻlgan. Asosan eʼtikof mutasaddisi boʻlgan [5:121^a varaq]. Demak, tariqat murshidi shogirdlarini tarbiyalashda, ularni turli vazifalarga taqsimot qilingan. Natijada shogirdlar muayyan vazifalarni sidqidildan ado etish asnosida, tariqat sir-asrorlarini oʻrganib borgan. Domla Muhammad Qosim Samarqandiy –xonaqohda imom xatib va kitobxonlik [5:120^b varaq] xizmatida faoliyat olib borgan.

Muhammad Husayn shogirdlari qatorida turli lavozimlarda faoliyat olib borgan davlat arboblari ham boʻlgan. Domla Muhammad Sharif Buxoriy – Buxoroda qozi askariy lavozimida ishlagan. Niyozbek, Toʻra xoja Naqib, Toshbek Buxoriy, Erdona Devonbegi, Qoribek Buxoriy, Abdurahmon bek Afgʻoniy, Abdujabbor Miroxur, Xudoyor Toʻqsabo Buxoriy [5:113^b varaq] Buxoro amirligining turli lavozimlarida ishlash asnosida, tariqatda ham nasibasi boʻlgan.

Abdurahmon bek ham Buxoro hukmdori bilan Xorazm tomonga yurishda qatnashgan [5:112^b varaq]. Aflotun Buxoriy – Buxoro hukmdorining “Aʼlam” (Bayroq)dori boʻlgan. U

hukmdor bilan Qizilbosh hududiga qirq kechayu-kunduz birga boʻlib, doim toat ibodatda bardavom boʻlgan. Domla Hakimbek Buxoriy – Buxoro hukmdorining yaqinlaridan boʻlgan. U Chelak hududlarida Beklik lavozimida xizmat qilgan. Keyinchalik Muhammad Husayndan [5:112^a varaq] tariqat sabogʻini oladi.

Muhammad Yusuf xoja va Muhammad Yunus xoja Vobkandiy Mir Xurd va Mir Kalon mozorining mutavallisi boʻlgan. Ibrohim xoja Buxoriy –Ziyouddin qalʼasiga qarashli Sultonobodda yashab istiqomat qilgan. Eshon Shokir xoja Sugʻonchiy – Muftiy [5:108^b varaq] lavozimida faoliyat olib borgan. Domla Rahmonberdi Buxoriy aqliy va naqliy ilmda dono boʻlgan.

Abdurahim xoja Ofarinkentiy – Shayx Xudoydod Valiy avlodidan [5: – B. 108^a varaq]. U shariat va tariqatga qatʼiy amal qilib, Kalomullohi sharifni kitobat qilish bilan maxsus shugʻullangan. Ayub xoja Miyonkoliy tariqat taʼlimini olgach, ustozining koʻrsatmasi bilan Xoʻqandga borib, silsilani davom ettirgan va oʻsha yerda vafot etgan. Uning oʻgʻli Yahyo xoja otasining vafotidan soʻng, Muhammad Husaynning xizmatiga keladi. Haj safariga borib kelgach [5:100^{a-b} varaq], silsilani davom ettirgan. Eshon Abdi xoja Miyonkoliy – dastlab Musoxon xojaga, uning vafotidan keyin Xoja Kalon va undan keyin Muhammad Husaynga shogird [5:100^a varaq] boʻlgan. Eshonxoja Dahbediy – Maxdumi Aʼzam Dahbediyning Xoja Kalon ismli oʻgʻlining avlodidan. Eshon Muhammad Tohir Dahbediy – Maxdumi Aʼzam Dahbediy Xoja Kalon ismli oʻgʻlining avlodidan boʻlib, sahovatpesha insonlardan boʻlgan. Muhammad Oʻroq xoja Dahbediy – Maxdumi Aʼzam Dahbediy avlod boʻlib, zamonasining fozil kishilaridan biri boʻlgan. Koʻp yillar xonaqohda imom xatiblik [5:98^{a-b} varaq] qilgan. Muhammad Sharif xoja Buxoriy – Atoulloh xoja shayxulislom Buxoriyning oʻgʻli [5:98^a varaq] boʻlib, bobosi Eshon Hodi xojadir. Dahbediylar silsilani Chust hududlarida davom ettirgan Mavlono Lutfulloh

Chustiyning avlodidan bo'lgan Abduroziq xoja va Abdurazzoq xoja [5:106^b varaq] bobokaloni ta'lim olgan Dahbedda mazkur silsilaga bog'langan.

Aziz xoja Kattaqo'rg'oniy, Abdulloh xoja Vobkandiy, Aziz xoja Jo'shiy, Qosim xoja Ofarinkentiy, Eshon Hidoyatulloh xoja Sug'onchiy, Domla Iyoz Buxoriy, Domla Iyso Buxoriy, Eshon Aziz xoja Ofarinkentiy, Shoh Rustam xoja Samarqandiy, G'iyosiddin xoja Samarqandiy, Muhammad Solih xoja Karminagiy, Abdulhafiz xoja Karminagiy, Xoja Kalon xoja Buxoriy, Hasan xoja Buxoriy, Domla Mir Komil G'ulakandoziy kabi shogirdlari ham o'z davrida mashhur tasavvuf namoyandalaridan biri bo'lgani ta'kidlangan.

XULOSA

Muhammad Jaloliddin "Mukoshiful asror"da Miyonkoliy, Karminagiy, Kattaqo'rg'oniy, Metaniy, Samarqandiy, G'ijduvoni, Buxoriy, Ofarinkentiy, Dahbediy, Vobkandiy, Sug'onchiy, Sarmejy nisbalik 60 dan ortiq tariqat namoyandasi Zarafshon vohasi hududi nomi bilan bog'liq ekani aniqlandi.

Zarafshon vohasida faoliyat olib borgan tasavvuf namoyandalari nasabi Abu Bakr Siddiqning avlodi – Xoja Ahror Valiy, Olim shayx Azizon; Umar ibn Xattobning avlodi – Miyon Fazl Ahmad, Miyon Fazl Muhammadxon; Ali ibn Abu Tolibning avlodi – Bahouddin Naqshband, Alouddin Attor, Ya'qub Charxiy, Hoji Habibulloh Buxoriy; Imom Molikning avlodi – Abduxoliq G'ijduvoni; Mavlono Orif Revgariyning avlodi – Xoja Ismatulloh kabi islom olamida mashhur shaxslarga ulanishi kuzatiladi. Yoki mashhur ulamo yoki tariqat murshidiga yetadi.

Muhammad Jaloliddin «Mukoshiful asror» asari orqali Miyonkoliy, Karminagiy, Kattaqo'rg'oniy, Metaniy, Samarqandiy, G'ijduvoni, Buxoriy, Ofarinkentiy, Dahbediy, Vobkandiy, Sug'onchiy, Sarmejy nisbalik 60 dan ortiq tariqat namoyandasi Zarafshon vohasi bilan bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmon Jomiy. Nafahotul uns. Qo'lyozma. IBXITM fondi inv. № 545.
2. Каримов Э. Хўжа Ахрор (ҳаёти ва фаолияти). – Т.: Маънавият, 2003.
3. Каттаев К. Тасаввуф алломалари. – Т.: Ғафур Ғулом, 2017.
4. Каттаев К. Махдуми Аъзам ва Даҳбед. – Самарқанд: Сўғдиёна, 1994.
5. Muhammad Jaloliddin. Mukoshiful asror. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi inv. № 2085. – 34^{a-b} varaq.
6. Nosiriddin Buxoriy. Tuhfatuz zoyirin. – Buxoro: 1324/1916.
7. Нақшбандия тариқатига оид қўлғзмалар фихристи. – Т.: Мовароуннахр, 1993.
8. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. – Бухоро: Дурдона, 2012.
9. Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. – Т.: Ma'naviyat, 1998.
10. Ўринбоев А. Хожа Ахрор. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/xoja-ahror-valiy-1404-1490>.
11. G'ulom Sarvar Lohuriy. Hazinatul asfiyo. Qo'lyozma. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi inv. № 8774.